

ROSSIYA UKRAINA URUSHINI JAXON IQTISODIYOTIGA TASIRI

Musurmonqulov Asadbek Shavkatjon o'g'li

Guliston davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya Ukraina urushini jaxon iqtisodiyotiga tasiri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya, Ukraina, iqtisodiyot, bosqinchilik, hujum, inflyasiya.

2022-yil 24-fevralda Rossiya Ukrainaga bosqinchilik hujumini boshladi. Bosqinchilik hujumiga qadar Rossiya Ukraina chegarasi yaqinida uzoq vaqt davomida qo'shin to'plab, uning sonini oshirib bordi hamda Ukrainaning NATOga qo'shilishini qonunan man etish to'g'risidagi talab bilan chiqdi. Bosqin boshlanishidan bir necha kun avval Rossiya Donetsk Xalq Respublikasi va Lugansk Xalq Respublikasi mustaqilligini tan oldi va 2022-yil 21-fevralda Ukraina sharqidagi Donbass hududiga Rossiya qurolli kuchlari bo'linmalarini yubordi. 24-fevral taxminan soat 05:00 EET (UTC+2) da Rossiya prezidenti Vladimir Putin Ukrainani „denatsifikatsiya“ va „demilitarizatsiya“ qilish maqsadida „maxsus harbiy operatsiya“ boshlanganini e'lon qildi. Oradan daqiqalar o'tgach, rus askarlari tomonidan Ukraina hududiga havodan hujumlar boshlandi. Ukraina chegara xizmati rus harbiylari Rossiya va Belarus bilan chegara postlari orqali bostirib kirganini ma'lum qildi. Ko'plab davlatlar ushbu bosqinchilik hujumini qoralashdi va Rossiyaga qarshi sanksiyalar joriy qilishdi. Hujumga qarshi global namoyishlar bo'lib o'tayotgan bir paytda Rossiyadagi namoyishlar ommaviy hibsga olishlar bilan qarshilandi. Bosqindan avval ham, bosqin davomida ham ko'plab davlatlar Ukrainaga qurol-yarog' yetkazib berish orqali yordam ko'rsatishdi. Bunga javoban Putin Rossiya yadroviy kuchlarini shay holatga keltirdi. Rossiya bosqini 2022-yilning sentabr oyidan muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Putin Rossiya federatsiyasi hududida qisman safarbarlik e'lon qildi. BMTning Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi ma'lumotlariga ko'ra, 500 mingdan ortiq ukrainalik qochqin hujumning dastlabki to'rt kuni ichida mamlakatni tark etib, Yevropa bo'ylab qochqinlar inqiroziga sabab bo'lgan.

2021-yilning martidan apreliga qadar Rossiya Ukraina bilan chegara yaqinida qo'shin to'plashni boshladi. Harbiylar sonini ko'paytirishning ikkinchi bosqichi 2021-yilning oktabridan 2022-yilning fevraligacha davom etdi. Rossiya 2022-yil Oktabr oyida Ukrainaning Xarkiv viloyatida mag'lubiyatga uchradi. Hozirgi kunda 2022-yil 21-dekabr gacha Rossiya Belorussiya hududiga 10 ming kishilik Armiyasini VA bir necha S-400 zenit Raketa komplekslarini joylashtirdi. 2023-yilda Ukraina hududiga Belorussiya armiyasi hujum qilish ehtimoli mavjud. Ushbu harbiy harakatlar

munosabati bilan AQSh Ikkinchi jahon urushi davridagi Lend-liz dasturini qayta ishga tushirdi. 2022-yil 9-may kuni AQSh Prezidenti Joe Biden Ukrainaga harbiy yordam berish imkonini ko'zda tutuvchi lend-liz to'g'risidagi qonunga imzo chekdi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan Rossiya-Ukraina mojarosining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri o'rganildi. Ziddiyat oqibatlari O'zbekiston iqtisodiyotiga asosan inflyasiya, tashqi savdo, uy xo'jaliklarining birlamchi va ikkilamchi daromadlari, ko'chmas mulk va foiz kanallari orqali ta'siri o'rganib chiqildi. Mazkur tahlilda 2022 yilning 10 oyiga taalluqli statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Bunda iqtisodiy diagnostika va iqtisodiy modellashtirishning DSGE usuli qo'llanildi. Mojaro ta'siri 2022 yilning mart oyidan boshlab keyingi 18 oy uchun 3 xil ssenariyda (xom ashyo narxi oshishi, pul o'tkazmalarining kamayishi, mehnat bozorining qisqarishi) simulyasiya qilindi.[1]

Tahlil natijalariga ko'ra:

- dunyoda inflyasiyaga asosan oziq-ovqat va energiya narxlarining keskin ko'tarilishi ta'sir qilayotgan bo'lsa, O'zbekistonda energiya narxlari asosan davlat nazorati ostida bo'lganligi sababli inflyasiyaning tezlashishiga ko'proq oziq-ovqat va xizmatlar narxining o'sishi sabab bo'lmoqda.

- 2022 yilning fevral oyida yillik oziq-ovqat narxlari o'sishi 13,1% gacha sekinlashgan bo'lsa, oktyabr oyiga kelib 16,3% gacha ko'tarildi. Mazkur davrda mehmonxona va restoran xizmatlari narxining yillik o'sishi 14,7% dan 23,3% gacha tezlashdi.[2]

- 2022 yilning mart-oktyabr oylarida O'zbekistonning Rossiyaga eksporti hajmi 2021 yilning mos davridagiga qaraganda 47% ga oshdi. Shunday bo'lsada, global bozorlarda tovar va xom ashyo narxlarining sezilarli ko'tarilishi nominal eksport hajmining ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, mart-oktyabr oylarida Rossiyaga paxta ip-kalavasi eksporti 41% ga ortgan. Lekin, ushbu davrda paxta tolasi narxlari o'zgarishi hisobga olinganda, real o'sish 8% ni tashkil qiladi. Ta'kidlash kerakki, 2022 yilda so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursining barqarorlashuvi ma'lum darajada tashqi shoklarning salbiy ta'sirini yumshatdi.

[3]

- Migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 9 oyi mobaynida O'zbekistonga rossiyalik 318 ming nafardan ortiq fuqaro kelgan. PMTI ekspertlari tomonidan 750 nafar relokant rezyumesini o'rganish natijalariga ko'ra, kelayotgan mutaxassislarning o'rtacha yoshi 32 yoshni tashkil etadi. Ish qidirayotganlarning 93% dan ortig'i oliy ma'lumotli va o'rtacha 8 yillik ish stajiga ega. O'zbekistonga asosan muhandislar (barcha rezyumelarning 18% i), IT mutaxassislari (15%), menejerlar, marketologlar, boshqaruv mutaxassislari va ma'muriy xodimlar (30%), o'qituvchilar (7%), shifokorlar va farmasevtlar (6%), shuningdek, moliyachilar (4%) kelmoqda.

- pul o'tkazmalari tarkibida Rossiyaning ulushi oshib ketishi kuzatildi; 2022 yilning mart oyida Rossiyadan pul o'tkazmalarining O'zbekistonga jami pul o'tkazmalaridagi ulushi 50% gacha tushib ketgan bo'lsa, may oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 85% ga yetdi (2021 yilda 70%, 2020 yilda 72% ni tashkil etgan edi);[4]

- 2022 yilning noyabr oyida Toshkent shahrida xonadonlarning 1 kv. metri uchun narxlar o'tgan yildagiga nisbatan o'rtacha 27% ga oshgan, ya'ni ushbu ko'rsatkich 2021 yilning noyabrida 849 AQSh dollariga teng bo'ldi va 2022 yilning noyabrida 1078 AQSh dollariga yetdi. Uy-joy narxlarining jiddiy oshishi boshqa davlatlarda ham kuzatildi. Global House Price Index ma'lumotlariga ko'ra, yuqori inflyasiya va ipoteka foiz stavkalarining ko'tarilishi aholining uy-joy sotib olish imkoniyatlarini cheklaganiga qaramay, 2022 yilning birinchi choragida dunyoning 56 ta mamlakatida uy-joy narxlari o'rtacha 10,2 foizga oshgan. Narxlarning o'sishi global o'zgarishlar natijasida pul oqimlarining ko'chmas mulk bozoriga yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- Inflyasiyaning tezlashishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini yashash xarajatlari oshishidan himoyalash uchun davlat xarajatlarining oshishiga sabab bo'ldi. Masalan, 2022 yilning 9 oyida ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va kompensasiya to'lovlari 14,5 trillion so'mga yetdi. Bu esa 2021 yilning mos davridagiga nisbatan 1,9 barobar ko'p demakdir.

DSGE modeli simulyasiya natijalariga ko'ra, jahon bozorida xom ashyo narxlarining 1% ga ko'tarilishi:

- 2023 yilda O'zbekiston iqtisodiyotidagi real o'sishning 2 foiz punktga sekinlashishiga olib kelishi mumkin;[5]

- Inflyasiyaning qo'shimcha 0,4 foiz punktga oshishiga, shu jumladan import inflyasiyasining 0,3 foiz punktga o'sishiga sabab bo'ladi. Zarba ta'siri keyingi 4 chorak davomida seziladi.

- oraliq iste'mol tovarlari narxlarining oshishi natijasida mahalliy ishlab chiqarishning qisqarishi sababli eksport 1 foiz punkt va import 0,4 foiz punktga kamayadi. Bu esa bandlik darajasining 1% gacha qisqarishiga olib kelishi mumkin.[6]

Xulosa:

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) 24-fevralda boshlangan Rossiya-Ukraina urushi energiya, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishiga sabab bo'lishidan xavotirda ekanligini va buning ham iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishini bildirdi. WTO Bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala yozma bayonotida, JST Ukrainadagi fojiani hayrat bilan kuzatayotganiga urg'u berdi.

Mamlakatdagi inqiroz tinch yo'l bilan hal qilinishini tilagan Okonjo-Iweala

"Ammo, biz davom etayotgan azob va qurbonlardan chuqur qayg'udamiz. Biz tinch va tez hal qilinishini uchun duo qilamiz." Deya qayd etdi. Okonjo-Iweala mamlakatdagi urushning dunyoga salbiy ta'siriga ham e'tibor qaratdi. "Biz urushning

tijorat oqibatlarini, xususan, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi va energiya narxlarining oshishi, ularning aholiga ta'siridan ham xavotirdamiz". Deyar ogohlantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. m.dw.com (2022) Russia launches massive invasion of Ukraine — as it happened Available at: <https://m.dw.com/en/russia-launches-massive-invasion-of-ukraine-as-it-happened/a-60893588> (accessed:24.02.2022).[1]

2. m.dw.com Russia launches massive invasion of Ukraine — as it happened Available at: <https://m.dw.com/en/mussia-launches-massive-invasion-of-ukraine-as-it-happened/a-60893588> (accessed:24.02.2022).[2]

3. Gerard Toal (2017) Abroad: Putin, the West and the Contest over Ukraine and caucasus Available at: <https://www.amazon.com/Near-Abroad-Contest-Ukraine-Caucasus/dp/01902533> (accessed:17.01.2017).[3]

4.

https://en.wikisource.org/wiki/On_the_Historical_Unity_of_Russians_and_Ukrainians[4]

5. m.dw.com (2022) Russia launches massive invasion of Ukraine — as it happened Available at: <https://m.dw.com/en/russia-launches-massive-invasion-of-ukraine-as-it-happened/a-60893588> (accessed:24.02.2022)[5]

6. Z.Bjezinski(1994)The Grand Chessboard Available at: <https://www.foreignaffairs.com/-partnership> (accessed:01.03.1994)[6]